

IQBOL MIRZO ASARLARINI O‘QITISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI (“DARAXTLAR” SHE’RI MISOLIDA)

Xudayberganova Diana Vladimirovna,
Urganch davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
<https://orcid.org/0009-0000-2398-1612>
e-mail: kudaybergenovadiana@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilariga badiiy adabiyotlarni o‘qitish orqali ularda ezgu fazilatlarni shakllantirish, atrofimizdagi har bir jonli va jonsiz narsalarga nisbatan hurmat, sevgi, sadoqat, vafo, samimiyat, halollik, rostgo‘ylik kabi insoniy hislatlar haqida fikr yuritildi. Xususan mahoratli, iste’dodli, qalbida olov yonib turadigan, O‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Iqbol Mirzoning “Daraxtlar” she’ri tahlilga tortildi. Muhokama davomida daraxtlarga alohida ehtirom ko‘rsatilgani, ularning matonatli, qanoatli, tabiatning har qanday mavsumiga tayyor ekanligi yoritilib berildi.

Kalit so‘zlar: She’r, tafakkur, tarbiya, daraxt, qish, kuz, matonat, qanoat, meva, yaxshilik, ezgulik, g‘amxo‘rlik.

Abstract. This article discusses the formation of noble qualities in secondary school students through teaching them fiction, such as respect for every living and inanimate thing around us, love, loyalty, fidelity, sincerity, honesty, and truthfulness. In particular, the poem "Trees" by Iqbol Mirzo, who is skillful, talented, and has a fire burning in his heart, and has a place in Uzbek literature, was analyzed. During the discussion, it was highlighted that trees are shown special respect, that they are strong, content, and ready for any season of nature.

Keywords: Poetry, contemplation, education, tree, winter, autumn, perseverance, contentment, fruit, goodness, kindness, care.

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование благородных качеств у учащихся средних школ посредством обучения их художественной литературе, таких как уважение ко всему живому и неживому вокруг нас, любовь, преданность, верность, искренность, честность и правдивость. В частности, было проанализировано стихотворение «Деревья» Икбола Мирзо, который искусен, талантлив, в его сердце горит огонь, и имеет



место в узбекской литературе. В ходе обсуждения было подчеркнуто, что деревьям оказывается особое уважение, что они сильны, довольны и готовы к любому сезону природы.

Ключевые слова: Поэзия, размышление, образование, дерево, зима, осень, настойчивость, удовлетворенность, плод, доброта, забота.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt kundan-kunga avj olib bormoqda va har qanday yoshdagi insonni ham o'ziga tortmoqda. Hamma narsaning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lganligi kabi uning ham bir qancha afzalliklari va kamchiliklari bor. Jumladan, qulayligini zamon bilan hamnafas bo'lishni, savollarga qisqa muddat ichida javob olishni, uzog'imizni yaqin qilib tezda bog'lana olishimizni ta'minlab beryapti desak adashmagan bo'lamiz. Biroq, uning kamchiligi sifatida ba'zi bir yoshlar undan oqilona foydalana olmasligini, o'ziga berilgan vaqtni havoga sovurib, munkasidan ketib unga bog'lanib qolganini aytishimiz mumkin. Otabek Xasanov “Liderlar kitobi” nomli risolasida quyidagicha fikr keltirib o'tadi: “Internetning yaxshi yoki yomonligini muhokama qilib, yoshlar tarbiyasini buzyapti, deb undan voz kecha olmaymiz” [1.140]. Demak bu vaziyat bilan jiddiy shug'ullanib, kelajak-avlod tarbiyasiga befarq bo'lmaslik har birimizning vazifamizdir. Bu jarayon aynan o'rta ta'lim maktablarida o'qish davomida yuzaga keladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ayni shu paytda o'smirlik yoshini boshdan o'tkazayotgan o'quvchining ong-shuuriga yomon illatlardan qochish, insoniy fazillatlarni shakllantirish to'g'risida yetarlicha bilim, tarbiya berish muhimdir. Shu nuqtayi nazardan darsliklarda o'qitiladigan har qanday adabiyotlarni chuqur o'zlashtirishiga, mavzuni puxta egallashini ta'minlashga yordam berish zarur. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining “Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi” asarida quyidagicha xitob qiladi: “Biz O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga mahkam bel bog'lagan ekanmiz, bu ulug' ishni ertaga emas, bugun boshlashimiz, buning uchun avvalo navqiron yoshlarimizga zarur sharoitlarni aynan bugun yaratib berishimiz kerak” [387]. O'zbek adabiyotining yirin namoyondalaridan bo'lgan, davlat va jamoat arbobi, bir qator davlat mukofotlari sovrindori Iqbol Mirzoning asarlarida ham shunday ezgu, insoniy fazillatlarni ko'rishimiz mumkin. Adibning to'liq ismi Iqboljon Mirzaaliyev bo'lib, Iqbol Mirzo uning taxallusidir. U 1967-yilda Farg'ona viloyatida ziyolilar oilasida tavallud topgan [200]. Har bir insonning hayotda o'rnini topishiga, bilim olishiga sharoit

yaratib berishida albatta ota-onaning o‘rni beqiyosdir. Yozuvchining ham shunday teran fikrlashi, tafakkurining yuksak darajada bo‘lishida o‘qituvchilar oilasida dunyoga kelgani deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. To‘g‘ri jamiyatning har qanday sohasida faoliyat olib boradigan shaxslar lozim. Lekin maktab davridagi murabbiy eng avvalo o‘zini anglab olishi, umri davomida qo‘llaydigan bilimni berishi, jamiyatga kerakli bo‘lib yetishtirishda tutgan o‘rni bilan boshqa sohalardan ajralib turadi. Adib ushbu she‘ri orqali tabiatning har faslida har xil vaziyatlarga to‘g‘ri kelib qolganida ham, qaddini tik tutib, hammasiga sabr, bardosh qilishi kerakligini yoritib o‘tgan. Jumladan qishning qahraton sovuqligidan, kuzning yomg‘irlaridan aziyat chekishiga qaramasdan, o‘zining saxovatpeshaligi bilan shirin-shakar mevalarni berishi taqsiqga loyiqdir. She‘r nafaqat daraxtlar haqida, balki boshiga qanday kun kelishidan qat‘iy nazar Vatanini qo‘riqlaydigan, himoya qiladigan, Vatani uchun kerak bo‘lsa jonini beradigan insonlar haqida desak nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хасанов.О. Лидерлар китоби —Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2020. —340 б
2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. —Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. —224
3. Mirziyoyev.Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi —Toshkent: O‘zbekiston, 2019. — 398 b

Research Science and
Innovation House

